



**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

**The role of the state budget in the implementation of the budget and its impact on
the macroeconomics**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Student Matyaqubova Feruza Alisher kizi

Annotation. This thesis systematically studies the role of the treasury service in the implementation of the state budget in the Republic of Uzbekistan and its impact on macroeconomics. The work analyzes the role of the treasury in collecting budget revenues, financing expenditures, ensuring budget discipline, and implementing financial control. It also examines the impact of the treasury service on processes such as maintaining macroeconomic stability, regulating inflation and budget deficits, and financing state social programs and investment projects. The 2025 budget indicators are given as an example, and the importance of ensuring effective distribution of funds and economic stability through the treasury service is shown.

Keywords: budget system, treasury service, budget execution, macroeconomics, financial discipline, budget deficit, economic stability.

Davlat budjeti ijrosida g'azbachili xizmati va uning makro iqtisodiyotiga ta'siri

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univeristeti

Talaba Matyaqubova Feruza Alisher qizi

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida davlat budjeti ijrosida g'aznachilik xizmati va uning makroiqtisodiyotga ta'siri tizimli tarzda o'rganilgan. Ishda g'aznachilikning budjet daromadlarini yig'ish, xarajatlarni moliyalashtirish, budjet intizomini ta'minlash va moliyaviy nazoratni amalga oshirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, g'aznachilik xizmati orqali makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflyatsiya va budjet defitsitini tartibga solish, davlat ijtimoiy dasturlari va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish kabi jarayonlarga ta'siri ko'rib chiqilgan. 2025 yil budjet ko'rsatkichlari misol qilib keltirilgan bo'lib, g'aznachilik xizmati orqali mablag'larning





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

samarali taqsimlanishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: budjet tizimi, g'aznachilik xizmati, budjet ijrosi, makroiqtisodiyot, moliyaviy intizom, budjet defitsiti, iqtisodiy barqarorlik

Kirish

Davlat budjeti ijrosi va g'aznachilik xizmati mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda ijtimoiy rivojlanishni rag'batlantirishda markaziy rol o'ynaydi. Budjet tizimi – bu davlat moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va samarali ishlatish mexanizmini tashkil etuvchi muhim institut bo'lib, uning samarali ishlashi fiskal barqarorlik, budjet intizomi va iqtisodiy rivojlanishning kafolatidir. G'aznachilik xizmati budjet mablag'larini markazlashtirilgan tizimda boshqarish, xarajatlarni moliyalashtirish, budjet jarayonlarini nazorat qilish va mablag'larning maqsadga muvofiq ishlatilishini ta'minlash funksiyalarini bajaradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi va g'aznachilik sohasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirdi. Ularga Budjet kodeksining qabul qilinishi, davlat g'aznachiligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, elektron budjet tizimlarining joriy etilishi va monitoring tizimining modernizatsiyasi kiradi. Ushbu islohotlar moliyaviy resurslardan foydalanishni optimallashtirish, budjet intizomini ta'minlash va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Qodirov S.B. fikriga ko'ra, "elektron budjet tizimlarini joriy etish orqali g'aznachilikning shaffofligi va samaradorligini oshirishga urg'u beradi. Unga ko'ra, zamonaviy texnologiyalar va ichki nazorat mexanizmlari budjet ijrosining





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

natijaviyligini kuchaytiradi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi hamda moliyaviy intizomni mustahkamlaydi¹” deb ta'kidlaydi.

Shuningdek, Malikov T.S. va Olimjonov O.O. “moliya darsligi”da, “g‘aznachilik tizimi davlat budjeti ijrosining samarali boshqarilishi va moliyaviy intizomni ta'minlashdagi markaziy rolini²” ta'kidlaydilar.

Abdullayeva N. esa, “fiskal barqarorlik va budjet intizomini mustahkamlashdagi g‘aznachilik tizimining rolini tahlil qiladi. Unga ko‘ra, g‘aznachilik xizmati orqali budjet defitsiti va ortiqcha xarajatlarni nazorat qilinib, davlat moliyasi tizimining samaradorligi oshiriladi³” deb ta'kidlaydi.

Asosiy qism

Davlat budjeti ijrosi mamlakatning moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida asosiy vosita hisoblanadi. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishi g‘aznachilik xizmati orqali ta'minlanadi. G‘aznachilik tizimi budjet mablag‘larini markazlashgan holda boshqarish, xarajatlarni moliyalashtirish, budjet intizomini saqlash va mablag‘larning maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish funksiyalarini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi davlat budjeti, mahalliy budjetlar va davlat maqsadli jamg‘armalarini o‘z ichiga oladi. Bu tizimning yagona tartibda ishlashi g‘aznachilik xizmatining markazlashgan va raqamlashtirilgan tizimi orqali amalga oshiriladi. G‘aznachilik xizmatining makroiqtisodiyotga ta'siri quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi⁴:

¹ Qodirov S.B. **Budjet va g‘aznachilik tizimi: nazariya va amaliyot.** Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 256 b.

² Malikov T.S., Olimjonov O.O. **Moliya darsligi.** Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 125 b.

³ Abdullayeva N. **Fiskal barqarorlik va budjet intizomi.** Toshkent: Moliyaviy nazorat, 2020. 178 b.

⁴ Vahobov A.V., Jo‘rayev A.S. **Soliq va soliqqa tortish: darslik.** Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2018. – 408 b.





JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES VOLUME-1, ISSUE-1, 2026

- **Inflyatsiya va pul-kredit siyosatiga ta'sir:** Budget mablag'larini boshqarish orqali inflyatsiya darajasi va pul oqimlari tartibga solinadi.
- **Iqtisodiy o'sish va investitsiyalar:** Davlat investitsiya loyihalari va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish iqtisodiy rivojlanish va ish o'rinlari yaratishga yordam beradi.
- **Budget intizomi va fiskal barqarorlik:** Mablag'larning maqsadli taqsimlanishi defitsitni kamaytiradi va davlat moliyasining barqarorligini oshiradi.

Shu bilan birga, mahalliy budgetlarning mustaqilligi va daromad bazasining kengayishi hududlarda iqtisodiy siyosatning aniq yo'nalishlarga qaratilishiga yordam beradi. G'aznachilikning raqamlashtirilgan monitoring tizimi, ichki audit va Hisob palatasi nazorati budget mablag'larining samarali ishlatilishini ta'minlaydi va makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. 2025 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti daromadlari 431 trillion so'mni, xarajatlari esa 480,5 trillion so'mni tashkil etgan, natijada budget defitsiti 49,5 trillion so'mni yoki YaIMning taxminan 3 foizini tashkil qilgan. Shu bilan birga, 2025 yilning birinchi yarmida daromadlar 209,1 trillion so'm, xarajatlar esa 241,7 trillion so'mni tashkil qilib, yarim yillik defitsit 32,6 trillion so'mni tashkil qilgan⁵. Ushbu ko'rsatkichlar g'aznachilik tizimi orqali mablag'larning markazlashgan va samarali boshqarilishi natijasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti ijrosida g'aznachilik xizmati nafaqat moliyaviy boshqaruvning asosiy vositasi, balki makroiqtisodiy barqarorlik, fiskal intizom va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim instrument hisoblanadi. Kelajakda tizimni raqamlashtirish va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish

⁵ www.stat.uz





**JOURNAL OF
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES
VOLUME-1, ISSUE-1, 2026**

budjet ijrosining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. 2025 yil ma'lumotlariga ko'ra, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 431 trillion so'm, xarajatlari esa 480,5 trillion so'mni tashkil etib, budjet defitsiti 49,5 trillion so'mni yoki YaIMning taxminan 3 foizini tashkil qilgan. Ushbu raqamlar g'aznachilik xizmati orqali mablag'larning samarali taqsimlanishi va budjet defitsitini tartibga solishning makroiqtisodiy barqarorlik uchun muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, g'aznachilik xizmati makroiqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir qiladi: inflyatsiya darajasini nazorat qilish, iqtisodiy o'sish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash orqali ish o'rinlari yaratish kabi yo'nalishlarda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy budjetlarning mustaqilligi va daromad manbalarining kengayishi hududiy rivojlanish va iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva N. Fiskal barqarorlik va budjet intizomi. Toshkent: Moliyaviy nazorat, 2020. – 178 b.
2. Toshpulatov G.I. Davlat g'aznachiligi va moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2022. – 204 b.
3. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliq va soliqqa tortish: darslik. Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2018. – 408 b.
4. Qodirov S.B. Budjet va g'aznachilik tizimi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 256 b.
5. Malikov T.S., Olimjonov O.O. Moliya darsligi. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – 125 b.
6. www.stat.uz
7. <https://www.lex.uz>

